

ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ

РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

THE ROLE OF FAMILY VALUES IN THE RAISING OF CHILDREN

**A.Qodiriy nomli JDPI maktabgacha
ta'lim metodikasi kafedrasи dots. G.Kushakova**

Аннотация: Maqolada ma'naviy-ma'rifiy Uyg'onish davrida ayollar va yoshlar imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi ijtimoiy muammolar va ularni yengib o'tishga yo'naltirilgan davlat siyosati mohiyati muhokama etiladi, xususan ma'naviy immunitetni ta'minlash omillari hamda ma'naviyat vaksinasining zaruriyati ta'kidlanadi.

Аннотация: В статье обсуждается вопрос о социальных проблемах женщин и молодежи в процессе реализации их возможностей, дум и чаяний и пути решения этих проблем, государственная политика по их поддержке, в частности обеспечение духовного иммунитета и духовной вакцины.

Annotation: The article discusses the issue of social problems of women and youth in the process of realizing their opportunities, thoughts and aspirations and ways of solving these problems, state policy to support them, in particular, the provision of spiritual immunity and spiritual vaccine.

Калит сўзлар: оила, Учинчи ренессанс, аёллар ва ёшлар, нуронийлар тарбияси, жамоатчилик назорати, маънавий иммунитет, маънавият вакцинаси.

Ключевые слова: семья, Третий ренессанс, женщины и молодежь, методы воспитания, которые использует страшее поколение, общественный контроль, духовный иммунитет, духовная вакцина.

Key words: family, Third Renaissance, women and youth, methods of educating which use the older generation, social control, spiritual immunity, spiritual vaccine.

Ma'lumki, barcha sa'y-harakatlarimiz samarasi sifatida bugun yuzaga chiqadigan ma'naviy-ma'rifiy Uyg'onish biz bunyod etishga kirishgan Uchinchi Renessans uchun mustaxkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yanada aniq qilib aytganda, har qanday Renessansning muhim asosini ma'naviy-ma'rifiy uyg'onish tashkil etadi. Ta'kidlash kerakki, davlatimiz rahbari Oliy Majlisiga Murojaatnomasida, shuningdek, O'zbekiston yoshlarining birinchi forumida, Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishlarida, yanvar oyida o'tkazilgan video selektorda Prezidentimizning "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning

jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida ma'naviy-ma'rifiy dolzarb vazifalarni, ma'naviy-ma'rifiy yangi uyg'onishning ilmiy-nazariy va metodologik asosini yaratib berdi. Bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgani, manfaatlar to'qnashuvi kundan-kunga kuchayotgani hammamizga ayon. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotganiga aslo befarq qarab bo'lmaydi.

Chunki, ayni shu global miqyosli jarayonlarda milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Ayni chog'da, faqat o'zini o'yplash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchi kayfiyatini turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, ayollar va yoshlar ongiga ustomonlik bilan singdirilayotgani ham sir emas. Avvalombor, bugun uchrayotgan ijtimoiy muommolarni kamaytirish uchun nuroniyalar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayapti. Qolarversa, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda.

Savol tug'iladi: mana, iqtisodiy kambag'allikni qisqartirish bo'yicha katta ishlar boshlandi. Qiyinchilik bilan bo'lsa ham mablag', investisiya topilyapti. Ammo ma'naviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qayerdan topamiz. Davlat rahbari qayd etgandek, "Jaholatga qarshi - ma'rifat" bilan kurashish kerak. Lekin Vatan, halq taqdiri o'rtada turganda, kerak bo'lsa, qonun ham o'z kuchini ko'rsatishi shart". Ma'naviyat targ'ibotchilarini tarbiyalash, ma'naviyat tizimini shakllantirishning muhim mezoni ekanligiga urg'u berdilar.

Globalashib borayotgan bugungi dunyoda terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi ortib, xatto ba'zi hududlarda atayin beqarorlik va norozilik kayfiyati tobora avj oldirilmoqda. Shunday qaltis hamda murakkab sharoitda har birimiz hushyor va ogoh bo'lib, halqimizni tinchligini, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash har birimizga farz va qarzdir. Prezidentimiz takidlaganidek, bilimli odam – e'tiqodli bo'ladi.

Ma’naviyat vaksinasini har bir millat o’zi yaratadi, dedilar. Odatda paxta dalasida g’o’zalar yo bog’dagi mevalarga qurt yoki g’allaga zang tushsa, unga qarshi kurashishga darrov otlanamiz. Biroq, milliy ma’naviyatga ziyon yetkazadigan “qurt” larga nisbatan negadir ko’pincha beparvomiz. Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o’ziga xos urf-odatlari, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog’imiz lozim”. “Qadriyatlar-jamiyatda kishilar o’rtasida obro’ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”. “Qadriyat-inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagи voqyealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlataladigan tushuncha”. “Qadriyat-voqyelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llaniladigan tushuncha”, - degan ta’riflar berilgan {2}.

Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo’lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog’liq xoslik shakldir. Dunyoda o’ziga xos qadriyatları bo’lmagan millat yo’q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog’liq holda namoyon bo’ladi. Keyingi vaqtarda O’zbekistonda milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha, kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi {3}.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Harakatlar strategiyasi” – islohatlarning yangi bosqichi bo’lib, unda aholini, oilalarni ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo’llab-quvvatlash yetakchi o’rinni egallaydi. Shu o’rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar asosida davlat idoralari xodimlarining va

jamoatchilik vakillarining uyma-uy yurib, xalq dardini tinglash, og'irini yengil qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Milliy qadriyatlarning asosi bo'lgan ma'naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go'zalligi, saxovatliligi, olivjanobligi, va'dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag'rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg'uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi.

Ota-onalik farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo'lib, ularni ma'nana oziqlantirar ekan, eng avvalo, o'zлari o'zaro muomila jarayonida namuna bo'lishlari hamda farzandlarini ko'proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari so'ngra o'z fikrlarini axloq me'yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir.

Davlatimiz rahbarining "Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'layapti? Ba'zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotganini, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani-achchiq bo'lsa-da, haqiqat", degan fikrlari ham bejiz emas.

Bunday ma'lumotlar kishini beixtiyor o'yga toldiradi. Xo'sh, o'smirlar ota-onalik, maktab, mahallaning qurshovuda, e'tiborida bo'lsa-da, bunday guruhlarga qanday qo'shilmoqdalar? Ma'lumki, inson huquqbazarlik yo'liga jamiyat, oila, maktab bilan uzviy aloqaning uzilishi tufayli kiradi. Insoniyat paydo bo'lishi bilan uning tili, urf-odatlari, an'analari, dini, madaniyati, ezgulikni ifodalovchi axloqiy fazilatlari vujudga kela boshlagan. Ularning mazmunida xalqning hayot tarzi, ruhiyati, ma'naviyati, madaniyati, turmush tarzi, o'y-xayollari aks etgan. Milliy qadriyat-millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Qadriyat atamasi arabcha "qadr" so'zidan olingan bo'lib, qimmatli, foydali degan ma'noni anglatadi. Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat

qiladigan moddiy-madaniy, ma’naviy omillar yig’indisidir. Bizning mentalitetimizga xos bo’lgan milliy qadriyatlardan andisha, sabr-toqat, vazminlik, mulozamat, sertavakalluflik, keksalarga hurmat ehtirom, ijtimoiy hayotda bosiqlik qon-qonimizga singib ketgan. Bir qator olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko’ra, O’zbekistonni yangilash va rivojlantirish yo’li to’rtta asosiy negizga asoslanadi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
2. Xalqimiz ma’naviy saviyasini mustahkamlash va rivojlantirish;
3. Insonni o’z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi;
4. Vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik, - deb qayd etilgani ham aynan milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyaviy ishlarni yoshlar o’rtasida olib borishda ko’proq qanday yo’nalishlarga e’tibor qaratish va targ’ibot ishlarida mahalla, oila, jamoat, tarbiyaviy muassasalarining o’rnini kuchaytirish zarurligini ko’rish mumkin.

Mualliflar qadriyatlar va ularning turlariga quyidagicha yondoshganlar:

Oilaviy qadriyatlar – bir oila uchun ma’lum bir ma’naviyat turi (masalan, tug’ilgan kunni nishonlash);

Milliy qadriyatlar – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo’lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;

Jamoa qadriyati - ma’lum bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo’lgan;

Umuminsoniy qadriyat – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiyl manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o’zida ifoda etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyat, o’z navbatida, Islom xalqlari ma’naviyati, Hindiston xalqlari ma’naviyati, Yevropa xalqlari ma’naviyati, Sharq xalqlari ma’naviyati yo’nalishlari quyidagicha yoritilgan; Islom xalqlari ma’naviyati arab xalqlari, forsiyzabon xalqlar, turkiy xalqlar;

Yevropa xalqlari ma’naviyati – rus, ingliz, fransuz ma’naviyati va hokazolar;

Hindiston xalqlari ma’naviyati – oriy xalqlar ma’naviyati, dravid xalqlari ma’naviyati;

Sharq xalqlari ma’naviyati – yapon ma’naviyati, xitoy ma’naviyati.Qadriyatlarning xilma-xil shakllari, moddiy, ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy, jamiyat hayotining sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqalar. Jumladan, milliy qadriyat – millatlar tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog’liq holda namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbarining “bolalarimizni qo’lidagi telefon tarbiyalayapti” degan fikrlari ayni haqiqat. Bolalarga telefon orqali singdirilayotgan har-xil buzuqlik va uydirmalar bir tomonidan ularning axloqiga salbiy ta’sir etsa, ikkinchi tomondan, yot g’oya manfaatiga xizmat qilayotganini inkor etib bo’lmaydi. Prezidentimiz kuyunib qayd etgandek, “Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo’lgan zararli g’oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo’lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo’lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni,murg’ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda”.

Prezidentimiz bunday tahlikalik vaziyatda loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini alohida uqtirib o’tdi. Bolalarimiz dinning asl mohiyatini bilib-bilmasdan, ana shunday radikal oqimlar ta’siriga tushib qoladi. Keyinchalik esa buni tuzatish uchun bir necha yillar kerak bo'ladi. Bugun barchamiz asosiy faoliyatimizni muhtaram yurtboshimizning Parlamentga, O’zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomalarining mazmun mohiyatini ayollar, ayniqsa yosh qizlar o’rtasida keng targ’ib etishimiz zarur. Xotin-qizlarimizga O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini, Qonunlar, Qarorlarni keng targ’ibot etish, O’zbekiston huquqiy-demokratik davlat ekanligini ayollarga, yoshlarimiz ongu-shururiga yetkazish kerak. O’tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning sifatiga, ta’sirchanligiga, samaradorligiga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Ertangi kunimiz egalari bo’lgan yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasiga, ularni yot

g’oyalar ta’siridan asrashga nihoyatda jiddiy e’tibor berishimiz shart. Diniy vaziyatning noto’g’ri talqiniga o’z vaqtida raddiyalar berish, muqaddas dinimizni asrash zarur. Xotin-qizlarimiz o’rtasida milliy kiyinish madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan targ’ibot ishlarini muntazam olib borishimiz kerak. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 3 fevralida 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishlari bo’yicha harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risidagi Farmoni qabul qilindi.

Davlat dasturi loyihasi 273 ta banddan iborat. Loyihani O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida aks etgan asosiy g’oya va takliflari hamda 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy vazifalar asosida ishlab chiqilganligi e’tiborga loyiq.

Unda o’z aksini topgan bandlar aholining turmush darajasini oshirish, pandemiya sharoitida ularning ijtimoiy himoyasini to’liq ta’minalash, islohatlarni huquqiy tomondan ta’minalab bera oladigan qonunlarni yaratishga qaratilgan.

E’tiborga loyiq tomoni, Davlat dasturi loyihasida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyat, tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o’ziga xosligi hamda ish hajmidan kelib chiqib belgilash, quyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishlashga o’rgatish, malakasini muntazam oshirib borishning aniq tizimini joriy etish bo’yicha takliflarni o’z ichiga olgan ilg’or qaror loyihasini ishlab chiqish ko’zda tutilgan.

Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning yangi tizimini yo’lga qo’yish bo’yicha takliflarni ishlab chiqish borasidagi tegishli vazifalar keltirilgani ham diqqatga sazovordir. Davlat rahbarining topshiriqlarini o’z vaqtida bajarmaganlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik masalasini yanada kuchaytirish lozim.

Ushbu dasturdagi chora-tadbirlarni bajarish uchun qariyib 30 trillion so'm, 2 mlrd. 600 million AQSh dollari va 57 million Yevrodan ziyod mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan. Davlat dasturining asosiy maqsadi-yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xalq farovonligini oshirishga qaratilgan.

Har qancha qiyin bo'lmasin 500 ming nafar yosh va 200 ming ayolni ish bilan ta'minlash hamda 300 ming aholini kambag'allikdan chiqarish lozim.

Shu bilan birga rivojlanishdan ortda qolayotgan 33 ta tuman va og'ir ahvoldagi 970 ta mahallaning yo'li va elektr ta'minoti, irrigasiya tarmog'ini yaxshilash, tibbiy va ta'minot tizimidagi islohatlarni eng uzoq qishloqlargacha yetkazish zarurligi qayd qilindi.

Davlat dasturida iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 113 ta chora-tadbirlar belgilandi. Eng katta e'tibor yangi ish o'rnlari tashkil etishga qaratilgan.

Xususan, o'z ishini boshlamoqchi bo'lganlarga 7 million so'mgacha subsidiya, kasbga o'qimoqchi bo'lganlarga 1 million so'mdan kompensasiya berilishi ko'zda tutilgan. Yil yakuniga qadar 10 ming km.dan ortiq ichki va tashqi qishloq yo'llarini ta'mirlash, 15 ming km. Elektr tarmoqlari hamda 4 mingta transformatorlarni yangilash, 700 dan ortiq aholi punkitiga toza ichimlik suvi yetkazish vazifasi belgilandi. Birinchi yarim yillikda 10 ming nafar, yil yakunigacha 20 ming nafar aholini ish bilan ta'minlash mumkin. Davlat dasturida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, tibbiyat, ta'lim hamda boshqa gumanitar sohalarni rivojlantirishga qaratilgan 93 ta band bor. Davlat dasturida kuchli ijtimoiy himoyaning amaldagi isbotini yana bir bor ko'rish mumkin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olishi va kasb egallahsga ko'maklashishi, og'ir kasallikka chalingan bolalarni davolash maqsadida "Bolalarni qo'llab-quvvatlash fondi" tashkil etiladi va unga davlat byudjetidan 100 milliard so'm ajratiladi. Yuqoridagi vazifalarning ijrosini ta'minlashda Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva rahbarligida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashiga ham "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutiga ham katta mas'uliyat yuklatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz takidlaganidek, “Agar kimdir, ma’naviyat masalasi - bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoraning ishi, deb o’ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir”.

Foydalaniman adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартағи ПҚ-5020-сонли “Хотин-қизларни қўллаб-кувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // <https://lex.uz/docs/5320582>

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилнинг 3 февраль ПФ-6155-сон “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналишлари бўйича ҳаракатлар стратегиясини “Ёшларни қўллаб-кувватлаш ва ахоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/5260791>

3.Назаров Қ.Н. Қадриятлар тизими барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси: акмеологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Дис....фал. фан. д-ри. -

Тошкент, 1995. - 311 б.

Нурматова М.А. Шахс маънавий камолотида эстетик ва ахлоқий қадриятлар уйғунлиги муаммоси. Фалсафа фан.доктори ...дисс.автореферати. – Т.: 2011

4.Рўзиева Р.Х. Жамиятнинг маънавий янгиланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини шакллантириш масалалари. Фалсаф. ф. докт. .. автор. -

Тошкент: 2012. – 52 б.